



## MAHALLIY VA MILLIY AN'ANAMIZ – KURASH

*Xudayorov D.D.*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nukus filiali (O'zDJTSUNF).  
“Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrası stajyor o'qituvchısı*

**Tayanch so'zlar:** kurash, sport, mutaxassis, to'garak, jarayon, kurashchi, jismoniy tarbiya, xalq, jahon.

**Ключевые слова:** борьба, спорт, специалист, кружок, процесс, борец, физкультура, народ, мир.

**Key words:** wrestling, sports, specialist, circle, process, wrestler, physical education, people, world.

Bizning milliy sportimiz kurash hisoblanadi. Bugungi kunda butun sport dunyosida o'zbek kurashi mashhur va ma'lumdir. Yurtimizning voaha hududlarida mahallachilik, kurashchilik an'analari davom etib kelmoqda. Mahalla polvoni, bu mahalla polvoni degan nomdor polvonlar yetishib chiqmoqda. Bu haqida Tog'ay Murod asarlari, Tursun Ali Muhammadning “Kuragi yerga tegmagan” asarlari barchamizga tanish. Hozir yuqoridagi asardan parchani e'tiboringizga havola etmoqchiman:

“Har bir inson oila qurganda: «Polvon o'g'il ko'rsam», - deydi. Nima uchun polvon o'g'il? Chunki polvon deganda xalqimiz, avvalo, to'rt muchasi sog', g'ayratli, shijoatli odamni ko'z oldiga keltiradi. O'g'il uylamoqchi bo'lgan inson qatorqator, biri-biridan shirin o'g'il-qiz - nabiralalar ko'rgisi keladi. Hammamizning ham Ollohdan yalinib farzand va nabiralalar so'rashimizdan maqsad naslimizni davom ettirishdir. O'quvchim! Naslimiz sog'lom bo'lishi uchun qachondan boshlab va qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligi haqida siz bilan o'rtoqlashishni ko'pdan dilimda tugib yurgan edim. Yaratganga beaded shukrlar bo'lsinkim, bu kun shu orzumga yetib turibman. Fikrmulohazalarimni avloddan-avlodga qolib kelayotgan rivoyat va hikoyatlarga tayangan holda bayon etishni joiz deb bildim. Zero xalqimizda «Oulpor - biyadan, polvon - onadan», degan maqol ham bor. Shu yerda bir rivoyat keltirsam. Buxoroning qorako'lida Ro'zimurod polvon o'tgan.

Aytishlaricha, bir sayilda hammani yengib, Amir Sayid Olimxon bilan ham kurash tushgan ekan. Yiqitishga ham, yiqilishga ham ori kelib kurashayotganidan Amirning jahli chiqib: - Nega astoydil belbog‘imdan tutmayapsan? - desa, - Amirim, meni kechiring, siz bilan olishishimning o‘zi xato, endi yiqilishga or qilyapman, - degan ekan. Shunda Amirning tantiligi tutib, kambag‘al bo‘lsa ham polvonni o‘ziga do‘st bilib, sayillarda chaqirib, kurashga solgan ekan.”

Haqiqatan, ham kurash sport turi milliyligimiz ruhi va ko‘zgsidir. Unda millatimizga xos mahllachilik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Milliy an‘anamiz hisoblangan kurash sport turini yanada rivojlantirish maqsadida yurtboshimiz ko‘plab islohotlar amalga oshirayotganlari e‘tiborga molik.

Kurash bilan shug‘ullangan xodimlar va harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarni ushbu sportga yanada keng jalb etish orqali sog‘lom turmush tarzini faol targ‘ib qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda yoshlarni «Polvonlari ko‘p yurt qudratli bo‘lur» degan yagona shior ostida birlashtirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida bepul kurash guruhleri tashkil etiladi. Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari dasturiga bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurash ustuvor sport turlari sifatida kiritiladi. Kurash bilan shug‘ullangan xodimlar va harbiy xizmatchilar tomonidan yoshlarni ushbu sportga yanada keng jalb etish orqali sog‘lom turmush tarzini faol targ‘ib qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda yoshlarni «Polvonlari ko‘p yurt qudratli bo‘lur» degan yagona shior ostida birlashtirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida bepul kurash guruhleri tashkil etiladi. Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari dasturiga bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurash ustuvor sport turlari sifatida kiritiladi.

Tasdiqlangan manzilli ro‘yxatga muvofiq 2021-2025 yillarda viloyatlar markazlari, Nukus va Toshkent shaharlarida kurash mahorat maktablari bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Kurash mahorat maktablari Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan boshlang‘ich professional davlat sport-ta‘lim muassasalari hisoblanadi va ularning faoliyati kurash bo‘yicha qobiliyatli va iqtidorli yosh sportchilarni tanlab olish va ularni asosan milliy terma jamoalarga tayyorlashga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarga bepul ta‘lim olish, olimpiya zaxiralari maktab-internatlarining me‘yorlariga muvofiq oziq-ovqat bilan ta‘minlanish hamda o‘quvchilar turar joyida bepul yashash huquqi beriladi.

O‘zbekiston kurash federatsiyasi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda Kurash milliy sport turini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etiladi. Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalari hamda mablag‘larni sarflash yo‘nalishlari belgilandi.



2023 yil 31 dekabrga qadar belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatga muvofiq olib kiritiladigan kurash gilamlari, ularni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, ularning ehtiyot va butlovchi qismlari, shuningdek xom ashyolari bojxona to'lovlaridan (QQS va bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi.

Tasdiqlangan norma, hujjatda kurash milliy sport turini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

1. Aholining barcha qatlamlarini kurash bilan shug'ullanishga keng jalb qilish hamda kurashni umumxalq sport turiga aylantirish;

2. Kurashni ommalashtirish, uning jahon sporti durdonasiga aylanishiga va Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishiga erishish;

3. Kurash bilan shug'ullanish uchun zarur moddiy-texnik baza va infratuzilmani shakllantirish;

4. Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bosqichma-bosqich kurash hamda jangovar kurashni ustuvor sport turlari sifatida kiritish;

5. Kurash bo'yicha professional trenerlar, hakamlar tayyorlash, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, kurashning ilmiy-metodologik bazasini kuchaytirish;

6. O'zbek kurashi brendini yaratish, investitsiyalarni jalb etgan holda yakkak sport kiyimlari va kurash gilamlarini ishlab chiqarish, kurashni tijoratlashtirish choralarini ko'rish;

7. Kurashni aholi o'rtasida keng targ'ib qilish.

Kurash milliy sport turini 2025 yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi, uni 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» hamda 2020-2025 yillarda kurashni ommalashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlar) tasdiqlandi. Konsepsiyaning asosiy maqsadi kurashni Yevropa, Afrika va Panamerika qit'aviy o'yinlari qatoriga rasman kiritish va xalqaro «GAISF-Global Association of International Sports Federations» tashkilotining e'tirofiga sazovor bo'lish, shuningdek 2028 yilgacha uni Xalqaro olimpiya o'yinlari dasturiga kiritishdan iborat.. 2020 yildan boshlab har yili 1 marta davlat organlari, muassasalari va tashkilotlari xodimlari o'rtasida kurash bo'yicha «O'zbek polvoni» respublika musobaqasi o'tkaziladi.

#### Adabiyotlar:

1. N.A. Tastanov « Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati». Toshkent-2015.
2. Nazirov B. S. « Surxondaryo viloyatida ilk ot sporti klublari»// Взгляд прошлое -2021. -Т. 4. -No . 11.
3. Nazirov B.S. «Master who devoted his life to sports»// Theoretical & Applied Science -2020. -No 6. -C. 78-82.



4. Nazirov B. S. «The first clubs in surkhan oasis»// *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal* -2021. -Т.11. -No 2. -С.1228-1231.
5. Sh.A.Taymuratov “Kurashchilarni tayorlash texnologiyasi”, O’quv qo’llanma. T. 2010.
6. Sh.A.Mirzaqulov “Belbog’li kurash nazariyasi va uslubiyati”, O’quv qo’llanma.T. 2013.
7. A.R.Taymuratov, Sh.S.Mirzanov “Kurash nazariyasi va uslubiyati”, O’quv qo’llanma. T. 2017.
8. N.A.Tastanov “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati”, Darslik. T., 2018.
9. A.R.Taymuratov “Kurash nazariyasi va uslubiyati”, O’quv qo’llanma T. 2020.
10. Sh.A.Mirzaqulov “Belbog’li kurash nazariyasi va uslubiyati”, O’quv qo’llanma. T. 2020.
11. B.X.Xaliqov “Kurash nazariyasi va uslubiyati”, O’quv qo’llanma. T. 2020.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada kurash sport turining mahalliychiligi, milliylik kasb etishi, bir qadriyat ekanligi haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Uning tarixi, buyukligi, qadimiyligi, xalqona xususiyatlari va uning milliy ruhi, obro’si haqida fikr yuritiladi.

**РЕЗЮМЕ**

В этой статье выдвигаются идеи о том, что борьба является родным видом спорта, приобретает национальность, является ценностью. Размышляется о его истории, величии, древности, народных особенностях и его национальном духе, авторитете.

**SUMMARY**

This article puts forward the idea that wrestling is a native sport, acquires nationality, and is a value. Reflects on its history, greatness, antiquity, national characteristics and its national spirit, authority.